

**PEDAGOG VA OTA-ONALAR O'RTASIDAGI SAMARALI
KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI: MAKTABGACHA TA'LIMDA
INNOVATSION YONDASHUV**

Omonillayeva Dilorom Ilyos qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim metodikasi

kafedra magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida pedagog va ota-onalar o'rtasidagi samarali kommunikatsiya texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Unda bola shaxsining har tomonlama rivojlanishida oila va ta'lim muassasasi hamkorligining o'rni, kommunikatsiya jarayonining pedagogik ahamiyati hamda innovatsion yondashuvlarning dolzarbligi tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli platformalar, mobil ilovalar, messenjer guruhlari, onlayn kundaliklar va videoaloqa vositalarining pedagog va ota-onalar o'rtasidagi muloqotni samarali tashkil etishdagi imkoniyatlari asoslab beriladi. Maqolada shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, empatiya va kommunikativ kompeten siyaning ahamiyati ham yoritilib, zamonaviy pedagogik hamkorlikning rivojlanish istiqbollari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari samarali kommunikatsiya bolalarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, pedagog-ota-ona hamkorligi, kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion yondashuv, raqamli platformalar, mobil ilovalar, onlayn kundalik, pedagogik kompetensiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish.*

Maktabgacha ta'lim tizimi zamonaviy jamiyatning eng muhim va ustuvor bo'g'inlaridan biri sifatida e'tirof etiladi, chunki aynan shu bosqichda bola shaxsining poydevori qo'yiladi⁴⁵, uning ijtimoiy muhitga moslashuvi, muloqot madaniyati, axloqiy qarashlari hamda dastlabki bilim, ko'nikma va malakalari shakllana boshlaydi. Bu davr bolaning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishi uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, unda o'zini anglash, boshqalar bilan munosabat o'rnatish, jamoa ichida o'z o'rnini topish kabi muhim kompetensiyalar tarkib topadi. Shu bois maktabgacha ta'lim jarayonini samarali tashkil etish jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri sifatida qaraladi.⁴⁶

Mazkur jarayonning samaradorligi esa ko'p jihatdan pedagog va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning qay darajada yo'lga qo'yilganiga bog'liqdir. Zero, bola tarbiyasi ikki muhim ijtimoiy institut — oila va ta'lim muassasasi hamkorligida amalga oshiriladi. Agar bu ikki tomon o'zaro uzviy aloqada bo'lsa, tarbiyaviy ta'sirlar bir-birini to'ldiradi, yagona

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2019

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). – Toshkent, 2020

maqsadga yo'naltiriladi va natijada bola rivojida izchillik hamda barqarorlik ta'minlanadi. Aksincha, pedagog va ota-onalar o'rtasida yetarli darajada muloqot va hamkorlik bo'lmasa, bu holat bolada qarama-qarshi talablarga duch kelish, tushunmovchiliklar paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonida uzilishlar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida, axborot oqimining keskin ortib borayotgan davrida hamda raqamli texnologiyalar keng joriy etilayotgan bir paytda kommunikatsiya jarayonlarini zamonaviy, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati yanada ortib bormoqda. An'anaviy muloqot shakllari bilan bir qatorda, raqamli platformalar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va masofaviy aloqa vositalari orqali pedagog va ota-onalar o'rtasidagi aloqani uzluksiz, tezkor va samarali yo'lga qo'yish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa nafaqat axborot almashish jarayonini yengillashtiradi, balki pedagogik hamkorlikni yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tizimida kommunikatsiya jarayonlarini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, pedagog va ota-onalar o'rtasida samarali hamkorlik muhitini yaratish, ularning o'zaro ishonch va hamjihatligini mustahkamlash bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Pedagog va ota-onalar o'rtasidagi kommunikatsiya — bu bola tarbiyasi, rivoji va ta'lim jarayonini muvofiqlashtirishga qaratilgan ko'p qirrali, tizimli hamda uzluksiz o'zaro ta'sir jarayonidir. U nafaqat oddiy axborot almashinuvi, balki pedagogik yondashuvlar, tarbiyaviy qarashlar, individual kuzatuvlar hamda amaliy tajribalarni o'zaro uyg'unlashtirishni ham o'z ichiga oladi. Mazkur kommunikatsiya orqali pedagog bola faoliyati, uning qiziqishlari, qiyinchiliklari va yutuqlari haqida ota-onaga muntazam ma'lumot berib boradi, ota-ona esa o'z navbatida bolaning oiladagi xulqi, psixologik holati va ehtiyojlari haqida muhim axborot yetkazadi. Shu tariqa ikki tomonlama muloqot bola shaxsini har tomonlama chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Ushbu jarayon samarali tashkil etilganda, bola rivojida muhim ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi. Avvalo, bola o'zini qo'llab-quvvatlovchi yagona muhitda his etadi, bu esa uning ijtimoiy-emotsional barqarorligini ta'minlaydi. Pedagog va ota-onaning yagona talab va yondashuv asosida ish olib borishi bolada ishonch, xavfsizlik hissi va o'ziga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Natijada bola ta'lim jarayoniga faolroq jalb etiladi, unda o'qishga qiziqish, ijobiy motivatsiya va mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bu omillar bolaning keyingi bosqichlardagi muvaffaqiyatli o'qishi va ijtimoiylashuvi uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, samarali kommunikatsiya pedagog va ota-onalar o'rtasida o'zaro ishonch, hurmat va hamkorlik muhitini shakllantiradi. Bu esa muammoli vaziyatlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, bolaning rivojlanishidagi individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. Masalan, bolaning nutqidagi yoki xulqidagi ayrim qiyinchiliklar erta aniqlanib, pedagog va ota-onaning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari orqali samarali hal etilishi mumkin. Aksincha, kommunikatsiya yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan holatlarda tarbiyaviy jarayonda uzilishlar yuzaga keladi. Pedagog va ota-onalar o'rtasidagi axborot almashinuvi sust bo'lsa, bola rivoji haqidagi muhim ma'lumotlar e'tibordan chetda qolishi

mumkin. Bu esa qarama-qarshi talablar, noto'g'ri tushunishlar va pedagogik ta'sirning nomuvofiqligiga olib keladi. Natijada bolada noaniqlik, ishonchsizlik, hatto ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar paydo bo'lishi ehtimoli ortadi. Shuningdek, bunday holat bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishining pasayishiga, passivlikka va mustaqil fikrlashning sustlashishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

Zamonaviy pedagogikada kommunikatsiyaning samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi⁴⁷, chunki ular an'anaviy muloqot shakllarini takomillashtirib, ta'lim jarayonini yanada ochiq, shaffof va moslashuvchan qilish imkonini beradi. Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayoni ta'lim sohasiga ham chuqur kirib kelib, pedagog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Natijada kommunikatsiya nafaqat tezkor, balki tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va doimiy ravishda amalga oshiriladigan jarayonga aylanmoqda. Raqamli platformalar, mobil ilovalar va interaktiv aloqa vositalari orqali pedagog va ota-onalar o'rtasidagi muloqot sezilarli darajada yengillashdi. Bunday vositalar yordamida vaqt va makon cheklovlari deyarli bartaraf etilib, istalgan paytda va istalgan joydan axborot almashish imkoniyati yaratilmoqda.⁴⁸ Masalan, onlayn kundaliklar orqali bolaning kundalik faoliyati, o'zlashtirish darajasi, xulq-atvori va ishtiroki haqida muntazam ma'lumot berib boriladi. Bu esa ota-onalarga farzandining ta'lim jarayonidagi holatini real vaqt rejimida kuzatish va zarur hollarda pedagog bilan tezkor aloqaga chiqish imkonini beradi.

Shuningdek, messenjer guruhlar va ijtimoiy tarmoqlar pedagog va ota-onalar o'rtasida tezkor va ommaviy axborot almashinuvini ta'minlaydi. Bu orqali muhim e'lonlar, tavsiyalar, uy vazifalari yoki tarbiyaviy yo'riqnomalar qisqa vaqt ichida barcha ota-onalarga yetkaziladi. Videoaloqa vositalari esa masofaviy uchrashuvlar, individual suhbatlar va onlayn maslahatlarni tashkil etishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, vaqt jihatidan band bo'lgan ota-onalar uchun bu imkoniyatlar nihoyatda qulay hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalarning yana bir muhim afzalligi — ular kommunikatsiyani faqat axborot yetkazish bilan cheklab qolmay, balki interaktivlikni ham ta'minlaydi. Ya'ni ota-onalar nafaqat ma'lumot oladi, balki fikr bildiradi, savol beradi, muhokamalarda ishtirok etadi va pedagog bilan hamkorlikda qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etiladi. Bu esa o'z navbatida pedagogik jarayonning demokratlashuviga, ochiqlik va ishonch muhitining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ayrim raqamli vositalar orqali bolalarning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, ularning individual yutuq va muammolarini aniqlash hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish imkoniyati kengayadi. Statistik ma'lumotlar, grafiklar va hisobotlar orqali pedagog va ota-onalar bolaning rivojlanish jarayonini chuqurroq tahlil qilishlari mumkin.

Innovatsion yondashuvlarning yana bir muhim jihati — bu kommunikatsiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llashdir. Har bir bola o'ziga xos individual

⁴⁷ Hasanboyeva O., Nishonova S. *Maktabgacha pedagogika.* – Toshkent: Ilm Ziyo, 2017.

⁴⁸ Yusupov R. *Pedagogik texnologiyalar.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019

xususiyatlar, qiziqishlar, ehtiyojlar va rivojlanish darajasiga ega bo'lganligi sababli, ota-onalar bilan olib boriladigan muloqot ham umumiy emas, balki differensial va moslashtirilgan tarzda tashkil etilishi lozim. Bunday yondashuv pedagogdan har bir o'quvchining psixologik portretini chuqur anglashni, uning oilaviy muhiti, tarbiya sharoiti va ijtimoiy omillarini inobatga olishni talab etadi. Shaxsga yo'naltirilgan kommunikatsiya jarayonida pedagog ota-onalar bilan hamkorlikni individual strategiyalar asosida yo'lga qo'yadi. Masalan, ayrim ota-onalar bilan muntazam va batafsil tahliliy suhbatlar samarali bo'lsa, boshqalar uchun qisqa, aniq va amaliy tavsiyalar berish muhimroq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli vositalar yordamida individual aloqa kanallarini yaratish — xabar almashish ilovalari, onlayn platformalar yoki shaxsiy konsultatsiyalar — kommunikatsiyaning samaradorligini yanada oshiradi.

Bunday yondashuv pedagogdan nafaqat puxta kasbiy bilimlarni, balki rivojlangan kommunikativ kompetensiyani ham talab qiladi. Ya'ni, u o'z fikrini aniq, tushunarli va ta'sirchan ifoda eta olishi, tinglay bilishi, muloqot jarayonida moslashuvchanlikni namoyon etishi zarur. Bundan tashqari, empatiya — ya'ni boshqa insonning his-tuyg'ularini his qila olish va tushunish qobiliyati — muhim ahamiyat kasb etadi. Empatik yondashuv ota-onalar bilan ishonchli munosabatlarni shakllantiradi, ularning muammolariga befarq bo'lmaslikni ta'minlaydi va hamkorlikni mustahkamlaydi. Psixologik sezgirlik esa pedagogga muloqot jarayonida noverbal belgilarni anglash, ota-onalarning ichki holatini sezish va vaziyatga mos ravishda yondashuvni o'zgartirish imkonini beradi. Masalan, ayrim holatlarda tanqidiy fikrni bevosita bildirish o'rniga, muloyim va qo'llab-quvvatlovchi uslubni tanlash zarur bo'ladi. Bu esa konfliktlarning oldini olish, ijobiy psixologik muhit yaratish va ta'lim-tarbiya jarayonida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Shuningdek, samarali kommunikatsiya texnologiyalariga interaktiv seminarlar, treninglar, ota-onalar klublari, "ochiq eshiklar kuni", hamkorlikdagi loyihalar hamda masofaviy maslahat xizmatlarini kiritish mumkin. Ushbu shakllar zamonaviy ta'lim tizimida pedagog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni tizimli va maqsadli tashkil etishga xizmat qiladi. Interaktiv seminarlar va treninglar ota-onalarning pedagogik bilim va ko'nikmalarini oshirishga yordam bersa, ota-onalar klublari doimiy muloqot va tajriba almashish maydonchasini yaratadi. "Ochiq eshiklar kuni" esa ota-onalarga ta'lim jarayonini bevosita kuzatish, o'qituvchi faoliyati va bola rivojlanishi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Hamkorlikdagi loyihalar esa ota-ona, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida uch tomonlama faol muloqotni shakllantirib, ta'lim jarayonini yanada amaliy va mazmunli qiladi. Masofaviy maslahat xizmatlari esa zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tezkor aloqa o'rnatish, muammolarni operativ hal etish va individual tavsiyalar berish imkonini kengaytiradi. Bunday ko'p shaklli kommunikatsiya tizimi ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini faollashtiradi va ularni pedagogik jarayonning passiv kuzatuvchisi emas, balki to'laqonli va faol sub'ektiga aylantiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagog va ota-onalar o'rtasidagi samarali va uzluksiz kommunikatsiya bolalarning kognitiv, emotsional hamda ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday hamkorlik natijasida bola

o'zini xavfsiz va qo'llab-quvvatlangan muhitda his qiladi, bu esa uning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi hamda o'quv faoliyatidagi faolligini kuchaytiradi. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim davrida ushbu omil alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu bosqichda bolaning shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy ko'nikmalari va o'qishga bo'lgan munosabati shakllanadi. Samarali kommunikatsiya esa ushbu jarayonni to'g'ri yo'naltirib, bola shaxsining keyingi rivojlanish bosqichlari uchun mustahkam psixologik va pedagogik poydevor yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tizimida pedagog va ota-onalar o'rtasidagi kommunikatsiyani innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Bu jarayonni samarali yo'lga qo'yish uchun pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish hamda ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish zarur. Kelgusida mazkur yo'nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish va ilg'or tajribalami amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). – Toshkent, 2020.
3. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Hasanboyeva O., Nishonova S. *Maktabgacha pedagogika*. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2017.
5. Yusupov R. *Pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
6. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Harvard University Press, 1978.
7. Bronfenbrenner U. *The Ecology of Human Development*. – Harvard University Press, 1979.
8. OECD (2021). *Early Childhood Education and Care Policy Review*. Paris: OECD Publishing.
9. UNICEF (2022). *Parent Engagement in Early Childhood Education*. New York: UNICEF.
10. UNESCO (2023). *Digital Transformation in Education*. Paris: UNESCO Publishing.